


# SAMARQAND VILOYATIDA MADANIYAT

Samarqand qadimdan dunyo sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lib kelgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bu shahar turli xalqlarning urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan va dunyo madaniyati rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.



## Samarqand viloyatidagi kutubxonalar faoliyati




2019 yil 1 yanvar holatiga kutubxona muassasalari soni 316 tani tashkil etadi: ulardan axborot-kutubxona markazlari 1 ta, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari 313 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar 1 ta va boshqa kutubxonalar 1 ta. Kutubxonalarning 175 tasi shahar joylarida 141 tasi esa qishloq joylarida joylashgan.

	Jami	Shu jumladan	
		Shahar joylarda	Qishloq joylarda
<b>Muassasalar soni, birlik</b>	<b>316</b>	<b>175</b>	<b>141</b>
<b>Kutubxona fondi, ming nusxa</b>	<b>8704,8</b>	<b>7664,5</b>	<b>1040,3</b>
<b>Foydalanuvchilar soni, ming kishi</b>	<b>752,6</b>	<b>584,7</b>	<b>167,8</b>
<b>Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa</b>	<b>4365,0</b>	<b>3702,7</b>	<b>662,2</b>


## Kutubxonalar soni, %

■ Shahar joylarda ■ Qishloq joylarda




Kutubxonalardagi fon 8704,8 ming nusxani tashkil qilib 7664,5 ming nusxa shahar joylarda, 1040.3 ming nusxa qishloq joylarda saqlanadi. Kutubxona foydalanuvchilari 752.6 ming kishini tashkil qildi.

## Kutubxona fondi, %



## Ta'lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlari, %



## Samarqand viloyatida muzeylar va teatrlar


2018 yil yanvar holatiga viloyatda muzeylar soni 11 tani, muzeyga tashrif buyuruvchilar soni 1903,5 ming kishini, asosiy fond eksponatlari soni 146166 tani tashkil qildi.



## MUZEYLAR FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Muzeylar soni, birlik	Ulardan muzey filiallari	Tashrif buyuruvchilar soni, ming kishi	Ulardan:		Muzeyda o'qilgan ma'ruzalar soni	Ko'rgazmalar soni	Muzeylar tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalar soni	Ekskursiya tarzida qatnaganlar soni, ming kishi
			o'quvchi va talabalar soni	umumiy soniga nisbatan foizda				
9	7	4054,9	2270,9	56	1215	11	25420	1631,5

### 2018 yilda muzey fondlari eksponat turlari bo'yicha, %



### Viloyatda madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati

Viloyatda 15 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud ularning umumiy maydoni 64,8 gektarni tashkil qiladi. Ularning faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

### Madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati

Madaniyat va istirohat bog'lari soni	Madaniyat va istirohat bog'lari umumiy maydoni, gektar	Dam olish ob'ektlari soni	Attraksionlar soni	Jami qatnovlar, ming kishi	Shu jumladan bolalar tomonidan
15	64,8	38	133	489,7	316,8





## Teatrlar faoliyati

Viloyatda 6 ta teatr mavjud bo'lib ularda jami 1207 ta spektakel (tomosha) lar namoyish etildi. Teatrlarga kirgan tomoshabinlar soni 286,3 ming nafarni tashkil qildi.



## Teatrlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Tomoshalar son	shu jumladan:				Tomoshalar umumiy sonidan qishloq aholiga	Bepul spektakllar tomoshalari soni	ulardan qishloq joylarda
	o'z joyida namoyish qilingan spektakllar	ko'chma spektakllar	ulardan:				
			o'z shahri doirasida	o'z shahridan tashqarida			
322,2	919	288	263	25	81	66	9